

SHAXSDA EKOLOGIK DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISHNING MA'NAVIY MARIFIY VAZIFALARI

*Fayziyev Abdulaziz Dilmurod o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq
ta‘limi yo‘nalishining 4-kurs talabasi
Tel: (97) 266 02 28*

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxsda ekologik dunyoqarashni rivojlantirishning ma'naviy marifiy vazifalari haqida fikr yuritiladi. Shaxsda ekologik dunyoqarashni rivojlantirishning ma'naviy marifiy vazifalariga alohida urg‘u bergen holda qator bahsli fikrlar, mulohazalar hamda takliflar ilgari suriladi.

Tayanch so‘zlar: Shaxs ekologik dunyoqarashni rivojlantirishning tadrijiy rivojlanish qonuniyatları, ekologik tafakkur, inson tabiat jamiyat, ma'naviy reguliyatorlar, ekologik qadriyatlar, ekologik barqarorlik, ekologik yashash usuli.

Abstract: This article discusses the spiritual and educational tasks of developing an ecological outlook in a person. A number of controversial opinions, considerations and proposals are put forward, with a special emphasis on the spiritual and educational tasks of developing an ecological worldview.

Key words: Laws of gradual development of personal ecological outlook, ecological thinking, human nature, society, spiritual regulators, ecological values, ecological stability, ecological way of life.

Аннотация: В данной статье рассматриваются духовно-воспитательные задачи развития экологического мировоззрения у человека. Выдвигается ряд противоречивых мнений, соображений и предложений, при этом особое внимание уделяется духовно-просветительским задачам формирования экологического мировоззрения.

Ключевые слова: Закономерности постепенного развития личного экологического мировоззрения, экологическое мышление, человеческая

природа, общество, духовные регуляторы, экологические ценности, экологическая устойчивость, экологический образ жизни.

KIRISH

Klassik tushunishga ko‘ra, axloq tarixiy xodisa sifatida kishilar va ijtimoiy birliklarning tabiatga munosabatini ham ma’naviy qadriyatlarda ifodalaydi. Ekologik axlokiy munosabatlar, o‘z mazmuniga ko‘ra, ijtimoiy munosabatning eng qadimgilaridan biri hisoblanadi. Chunki har qanday jamiyatda insonning tabiat bilan munosabati: instinktiv-reflektiv yoki ongliligidan qat’iy nazar, biosfera ekologik muvozanati qonuniyatlariga ta’sir faoliyatini ifodalaydi. Hatto, ekologik ehtiyojlarni instinktiv anglash natijasida vujudga kelgan ibridoq sodda axlok normalari ham, o‘z davrida, ekologik barqarorlikni tashkil qilish, boshqarishning nisbatan turgun, dominantlashgan ijtimoiy ong shakli tarzida namoyon bo‘lgan.

Boshqacha aytganda, ommaning ekologik axloqiy normalari, amaliy xattiharakatlari stixiyali, mexanistik tarzda vujudga kelmaydi, aksincha, tarixiy zaruriyatning anglangan obyektiv holatidan kelib chiqadi. Shuning uchun tabiatni muhofaza qilish faoliyatini regulyatsiya qiluvchi axloqiy qadriyatlarni mutlaklashtirish, ularni ijtimoiy ekologik borlikdan mustaqilligi haqidagi fikrlar yoki uning subyektivligini, maqsadga muvofiq ongli boshqarilishini ma’naviy faoliyatning boshqa shakllari bilan aralashtirib yuborish nazariy jihatdan g‘alizdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Rim klubii” mashxur namoyondalaridan biri bo‘lgan A.Pechcheyaning ta’kidlashicha, insonning tabiatga nisbatan yovuzlik munosabatlarini bartaraf qilish va uning himoyachisiga aylantishda axloqni kuchaytirish, o‘ziga xos ekologik etikani yaratish ekologik muammoni hal qilishning eng maqbul yo‘lidir. Bu tarzdagi ilmiy qarashlar umumlashib, fundamental ekoetika nazariyasi darajasiga chiqmagan bo‘lsada, ammo ular umumiyy gipotetik yo‘nalishlarni ifodalab turibdi. Eng muhimi, uthor doiradagi ratsional-utilitar qarashlarning mexanistik yigindisi emas. Chunki ekologik faoliyatda an’anaviy utilitarizm inson mavjudligining tabiiy asoslarini chegaralangan manfaatlar doirasida tushunadi.

Ekologik adabiyotlarda tabiatdagi ayrim turlarning yo‘q bolib ketishi biosfera tarixiy rivojlanishi obyektiv zaruratidan, sivilizatsiyaning qonuniy natijalaridan kelib chiqadi, deb uni axloqiy jihatdan oqlaydilar va bu jarayonni tezlashtirishda antropotexnogen omilning rolini inkor qiladilar. Darhaqiqat, inson o‘z ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatida tabiatni, o‘z ehtiyojlariga asosan o‘zgartirishga majbur, lekin bu o‘zgartirishlar biosfera tabiiy muvozanatiga putur yetkazmasligi.

Aksilogik qarashlar ekologik barqaror taraqqiyotga nisbatan mustaqil, lekin o‘zaro bog‘lik uch yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi:

- a) ekologik faoliyatni axloqlashtirishdan iborat ekoetika mafkurasini vujudga keltirish;
- b) ijtimoiy-axloqiy munosabatlarni ekologiyalashtirish;
- c) ekologiyalashgan axloqiy qadriyatlarni davlat siyosati darajasiga ko‘tarishdir.

Bu yo‘nalishlarning o‘zaro birligi, shaxsning ijtimoiy-ekologik faoliyati va mas’uliyati strukturasiga ta’sir qilib, uning ekologik sifatlarini belgilovchi universal axloqiy normalar majmuasini vujudga keltiradi.

Insoniyatning tabiatga antropotexnogen ta’siri jarayonida axloqning ikki jihatni ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, inson tabiatni o‘zining muayyan manfaatlari, ehtiyojlariga ko‘ra maqsadga muvofik o‘zlashtirishi orqali o‘z ijtimoiy-axloqiy mohiyatini namoyon qiladi. Ikkinchidan, inson tabiatni o‘zgartirib, uning “ijtimoiylashtirishi” bilan axloqiy munosabatlarni ham takomillashtirib boradi.

Insoniyat sivilizatsiyasining ma’naviy yo‘nalishlari ekologik muammolar doirasida ichki birlikni tashkil qilib, ularning huquqiy, ma’muriy yo‘nalishlari integratsiyalashib, ularning funksiyasida umuminsoniy axloqiy normalar ustuvorlashib, axloqiy qadriyat normalari, prinsiplari inson ekologik faoliyati reguliyatsiyasining asosiy omiliga aylanadi. Tabiat munosabatlarini boshqarishdagi ijtimoiy-siyosiy usturma elementlaridan farqli o‘larok, axloqiy-ma’naviy qadriyatlar kishilar irodasiga tayanadigan, subyektivlashgan faoliyat hisoblanadi. Ekologik barqaror taraqqiyotning obyektiv qonuniyatları subyektning tabiatni muhofaza qilish amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ekologik faoliyatni kishilarning

subyektiv intilishlari, iroda erkinligi, ijtimoiy-ma'naviy sa'y-harakatlaridan tashqarida tushunish mumkin emas.

Ekologik axloqiy qadriyatlar, ijtimoiylikning tabiatgaya ajratilgan mustaqil, mavxum mohiyati emas, aksincha, insoniyatning tabiatni muhofaza qilish amaliy faoliyati bilan bogliq bo'lib, uning tarixiy rivojlanish shakllariga mos keladi. Biroq jamiyatning ekologik axloqiy qadriyatları, tabiatni muhofaza qilish amaliy xatti-harakatlari, yo'nalishlarini, istiqbolini qat'iy, konkret tarzda belgilab bera olmaydi. Ular nari borsa ijtimoiy normalar sifatida tabiat muhofazasi tadbirlarini sxematik tarzda aniqlanishi bilan ekologik ziddiyatlarni bartaraf qilishning umumiyo yo'nalishlarini ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy-ekologik qadriyatlar shaxsning tabiat muhofazasi sohasidagi xatti-harakatlarini va yo'nalishlarini o'z- o'zidan boshqaradigan omil bo'la olmaydi, balki inson ekologik faoliyatining konkret vaziyatlarida, u qanday asosiy vazifalarni hal qilayotganligiga boglik.

"Jamiyat — tabiat" majmuasida har bir shaxs o'z ehtiyojlari, manfaatlari asosida ekologik axloqiy normalari ixtiyoriy tanlab olish imkoniyatiga ega. Bu, shaxs erkinligi masalasi bilan bog'lik bo'lib, ekologik axloqiy normalarning e'tiqod darajasiga ko'tarilishini ifodalaydi. Ta'lim-tarbiyaning har qanday shakli va darajasi axloqiy normalarni hayotiy mavqega aylantirish vazifasini bajarishga qaratilgan. Bunda ma'muriy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy tarbiya yo'nalishlarini ekologik axloqiy tarbiya manfaatlari bilan uzbek bog'langan holda muayyan ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarda, shaxs hayot tarziga singib, axloqiy normalarning e'tiqod darajasiga ko'tarilishiga olib keladi. U insonning konkret ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yashash sharoiti, tarbiya yo'nalishlarini, ularning harakat mexanizmlarini belgilab turadi.

Ekologik qadriyatlarning aksiologik-regulyativ funksiyasi shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni muvofiqlashtirishdan iborat rag'batlantirish yoki taqiqlash normalari, tamoyilari hisoblanadi. O'z navbatida bular, shaxs ekologik e'tiqodi mazmunini tashkil qilib, tabiatni muhofaza qilish faoliyatning qadriyat yo'nalishlarini belgilab turadi. Bu galablarning konkret amaliy faoliyat mazmuniga aylanishi, shaxsning o'z ekologik

mas'uliyatini anglashiga hamda jamoatchilik fikri asosida faoliyatini boshqarish va nazorat qilishiga bog'liq bo'ladi.

Ekologik faoliyatni ma'naviy regulyatorlar yordamida boshqarishning eng muhim sharti har bir individning tabiat va jamiyat kelajagi uchun ma'naviy mas'uliyatni chuqur his qilishidir. Shu nuktai nazardan, ekologik axloqiy mas'uliyat o'zaro boglik bolgan ikki vazifani bajaradi. Ya'ni: birinchidan, insonning subyektiv imkoniyatlarini obyektiv zaruriyat bilan muvofiqlashtiradi. Ikkinchidan, shaxsning ijtimoiy manfaatlarni hisobga olgan holda, uning irodasini personifikatsiyalashgan shaklda namoyon qiladi.

Inson hayoti uchun qulay bo'lgan "ekologik yashash usuli" tabiatning obyektiv qonuniyatlari asosida o'z-o'zidan, stixiyali tarzda vujudga kelmaydi, balki u ma'naviy qadriyatlar moddiylashuvidan iborat, ijtimoiy-amaliy faoliyatning natijasidir. Bularning O'zaro dialektik birligi insonning tabiatni muhofaza qilish faoliyatini boshqarishning zaruriy sharti ekologik yashash usulini angash xarakteriga boglik. Bundan tashqari, tabiat boyliklari ekologik-ijtimoiy iste'mol qiymatiga ega bo'lib, konkret vaziyatlarda biosfera ayrim komponentlarining iste'mol qiymati nisbatan ustuvor ahamiyatiga ega bo'lishi mumkin.

Mazmuni va funksiyasiga ko'ra, ekologik boshqarish ijtimoiy boshqarishning tarkibiy qismi sifatida "tabiat — jamiyat — inson" majmuasi munosabatlari muvofiqligini, biosfera muvozanatini saqlashga qaratilgan bo'lib, uning harakterini jamiyatning ehtiyojlari belgilaydi.

NATIJALAR

Ekologik axloqning bu munosabatlarni ongli tarzda, maqsadga muvofiq boshqarishi, uning subyektivlik mohiyatini namoyon qiladi. Lekin genezisiga ko'ra, insonning tabiatni muhofaza qilish ehtiyojlari obyektivligidan, ekologik axloqning obyektivligi ham kelib chiqadi. Ekologik amaliyot jarayonida axloqning obyektivlik va subyektivlik munosabatlari moddiylashadi hamda O'zining konkret mazmuniga ega bo'ladi. Ekologik barkaror taraqqiyotda axloqning obyektivligi va subyektivligi bir-birisiz hech qanday mazmunni ifodalamaydi.

Subyektning ekologik barqarorlik sharoitida tabiatni va o‘z moxiyatini o‘zgartirishdagi ijodiy roli quyidagilardan iborat:

- Ekologik axloqiy ehtiyojlarning inson iqtisodiy yashash sharoitiga mos kelmasligi, biosfera muvozanatiga, barqarorlik goyasiga putur yetkazishida o‘z ifodasini topadi. Bunda tabiatni muhofaza qilishning anglangan zarurati subyekt ekologik amaliy va nazariy faoliyatining harakatlantiruvchi motividir.

- Ekologik axloqning nisbiy mustaqilligi, ijodiy faolligi biosfera tabiiy muvozanatini maqsadga muvofiq tashkil qilish bilan xarakterlanib, tabiatni muhofaza qilish faoliyatining yo‘nalishlarini muvofiqlashtiradi va konkretlashtiradi.

- Ekologik munosabatlarda axloq-tabnatni muhofaza qilish extiyojlarining passiv hosilasi emas, aksincha, ekologik barqarorlikni tashkil qilish, boshqarish jarayonlarining emotsiyal-ruhiy, ma’naviy-mafkuraviy asoslarini tashkil qilishi bilan o‘zining obyektiv mazmunini namoyon qiladi.

- Ekologik barkaror taraqqiyot munosabatlarining regulyatori bo‘lgan axloqning nazariy hamda amaliy yo‘nalishlari, tarixiy tajribalarni umumlashtirish, konkretlashtirish jarayonida integratsiyalashuvi va differensiallashuvi obyektiv tarixiy zaruriyatdir.

“Inson tabiat jamiyat” majmuasi mukarrar ravishda axloqiy munosabatlarga asoslangan. Chunki bu majmuaning o‘rta bo‘g‘ini tabiat - jamiyatning yashash sharti bo‘lsa, inson biologik organizm sifatida, tabiat evolyutsion rivojlanishining ham qonuniy mahsuli va uning ajralmas tarkibiy qismidir. Shu nuqtai nazardan, tabiatga nisbatan shafqatsizlarcha munosabat bir vaqtning o‘zida insoniyatga bo‘lgan shafqatsizlik va ijtimoiy yovuzlikka olib boradigan g‘ayriinsoniy axloqsizlik namunasidir.

“Hozirgi davrga kelib, ekologik axloqiy normalarning yuksak ideallari, tabiatga munosabatning yangi axloqiy mezonlari tarkib topmoqda. Umuminsoniy ekologik qadriyatlarning axloqiy jihatlari siyosat, iqtisod va mafkura sohasidagi munosabatlarni belgilovchi omilga aylanmoqda, ya’ni ekologik ideallarinig axloqiy mazmuni boshqa ijtimoiy ong shakllarini kengroq miqyosda qamrab olmoqda.

Kelajak avlodlar oldidagi ijtimoiy mas'uliyat va burch boshqa sohalarda ekologiya sohasidagidek, keskin tarzda kun tartibiga qo'yilgan emas. Agar qo'yilgan bo'lsa, bu masala, albatta, ekologik ehtiyojlar va manfaatlarga borib taqaladi. Ekologik faoliyat doirasida ijtimoiy mas'uliyat va burch tushunchalari mazmuni tahlili, uning istiqbol yo'nalishlarini belgilaydi. Maxsus ilmiy adabiyotlarda ekologik mas'uliyatni uch guruhdagi muammolari qayd qilinadi:

- 1) matematika muammolari doirasida ekologik mas'uliyat mavjudligi va uning kategorial apparatini aniqlash;
- 2) normativ axloq masalalari doirasida "tabiat — jamiyat — inson" majmuasida biosfera muvozanati xususiyatlarini tahlil qilib, undagi inson mas'uliyati va majburiyatlarini belgilash;
- 3) kelajak avlod oldidagi ekologik mas'uliyatning hayot bilan bog'lik nazariy va amaliy muammolari yechimini topishdan iborat.

XULOSA

Umumlashtirib aytganda, ekologik faoliyatni axloqiy normalarga asosan boshqarishni, shaxs va boshqa ijtimoiy birliklarning tabiatni muhofaza qilishdagi amaliy xatti-harakatlarini umuminsoniy ekologik standartlarga muvofiqlashtirishdan iborat. Shuningdek, ekologik axloqiy normalarni tarixiy vorislik prinsiplari asosida rivojlantirmasdan, umummilliy ekologik qadriyatlar modeli va etalonini yaratish mumkin emas. Shu jarayonda, ekologik axloqiy normalar mazmuni shaxs va jamiyatning tabiatni o'zlashtirish, uni muhofaza qilish ehtiyojlariga mos kelishi yoki kelmasligini ifodalaydigan mezonga aylanmoqda. Tabiat oqilona muhofaza qilish muammolari doirasida inson ma'naviy qadriyatlaring alohida ahamiyati shundaki, ekologik barqaror taraqqiyot: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, estetik, axloqiy mexanizmlari mujassamlashtiruvchi jihat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. J.1. – Toshkent.: O'zbekiston, 2017. 570-b.

2. Abdullaev E. Ekologicheskie otnosheniya i ekologicheskoe soznanie. - Tashkent.: 1990, 219-b.
3. Arsenev V.R Zveri-bogi-lyudi. – M, 1991. S.160
4. Mamashokirov S. Vahimami yoki haqiqat. – Toshkent.: Iqtisod-moliya, 2012. 114.-b.